

"JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING O'ZBEKISTON TARIXIDAGI O'RNI"

Normetov Bunyod Jasur o'g'li

*Termiz davlat universiteti tarix fakulteti Arxeologiya
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbekiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati, uning ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy mazmuni keng yoritilgan. Jadidlarning asosiy maqsadi xalqni jaholatdan xalos etish, zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilishdan iborat bo'lgan. Maqolada harakat yetakchilarining faoliyati, yangi usuldagi maktablarning ahamiyati, jadid matbuoti va Turkiston Muxtoriyati kabi tarixiy voqealarga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, jadidchilik harakatining O'zbekiston tarixidagi o'rni, uning merosi va bugungi kunda tutgan dolzarbligi haqida ham mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Jadidchilik, Qrim-tatar, Ismoil Gaspirali, Tarbiyayi atfol, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mustafó Cho'qay, Shuhrat gazetasi, Turkiston muhtoriyati*

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda, xususan, hozirgi O'zbekiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqimiz tarixida tub burilish yasagan ijtimoiy-ma'naviy harakatlardan biridir. Bu harakat ilm-fan, ma'rifat, taraqqiyot va milliy uyg'onish g'oyalari asosida shakllangan bo'lib, Turkiston o'lkasini jaholat, zo'ravonlik va mustamlakachilik zulmidan qutqarish, xalqni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishni o'z oldiga maqsad qilgan edi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Turkiston o'lkasida bu yangilanish ehtiyoji yaqqol sezila boshladi. Ana shunday tarixiy sharoitda yuzaga kelgan jadidchilik harakati O'zbekiston tarixida muhim ahamiyat kasb etdi. Jadidlar zamonaviy ta'lim, erkin fikr va milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surib, xalqni jaholatdan xalos etishga harakat qildilar. "Jadid" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "yangi", "yangilik tarafdori" degan ma'noni bildiradi. Jadidlar eski uslubdagi diniy va an'anaviy ta'lim tizimini tanqid qilib, zamonaviy, dunyoviy bilimlarni o'rgatuvchi yangi maktablar ochishni boshladilar.

Asosiy qism:

Jadidchilik dastlab XIX-asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim-tatarlar o'rtasida vujudga keldi. Ismoil Gaspirali Qrimdagi Boqchasaroyda birinchi jadid maktabiga asos soldi. O'zi tuzgan ta'lim dasturi asosida darslik tayyorladi. Shu dastur bo'yicha 40 kunda 12 ta o'quvchining savodini chiqardi. Bu usul "usuli savtiya" harf tovushi usuli, yani "usuli jadid" nomi bilan keng tarqaldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh

qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. O'zbekiston hududida uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o'z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. U o'z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo'g'irchoqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko'zlaydi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqtirishgacha borildi. O'sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o'g'li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o'z „Xitobnoma“si (1898)da yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish — siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassisarlari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish, turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish edi. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Jadidchilikning asosiy g'oyalari Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish kabilarni o'zida mujassam etgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surgan. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyondalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov,

Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaye, Buxorada Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jaye, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Boboovun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi. Turkiston jadidlarini birlashtirishda "O'rta osiyo jadidlar otasi" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) ning xizmati katta bo'ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tehsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko'tariladi. Behbudiy o'rta osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'l boshchisi edi. Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga "Behbudiya Kutubxonasi" deb atalgan kutubxona tashkil qilingan. Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) Turkiston o'lkasida ozodlik, millat kelajaki uchun kurashgan ma'rifatparvar siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri. 1904-yildan boshlab o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri va jadid teatri targ'ibotchisi bo'lgan. Munavvarqori maktablar uchun "Adibi avval" "Adibi soniy" "Yer yuzi" kabi darsliklarni yaratdi. Dastlabki paytlarda madaniy-ma'rifiy, keyinchalik siyosiy-ijtimoiy xususiyat kasb etgan istilochilik harakati faol ishtirokchilaridan biri Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug'ilgan. U maktab va madrasada ta'lim olib, o'z zamonasining ma'rifatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim, matbuot, teatr sohalarining rivijlanishiga katta hissa qo'shib, 1907-yil "Shuhrat" gazetasiga asos soldi. O'zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun "Birinchi muallim" "Ikkinchi muallim" "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darsliklarni yaratdi. Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlar ham ma'rifatparvarlik faoliyatini olib borib, yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona va kitob do'konlari ochdilar. Turkiston taraqqiyparvar sarmoyadorlari yoshlarni chet ellarga yuborib, zarur kasblarni egallab, xalqqa foydali xizmat qiladigan yoshlarni va ular uchun qayg'urgan jadidlarni qo'llab-quvatladilar. Andijonlik Mirkomil Mirmo'minboyev o'z hisobidan ana shu ishga katta miqdorda mablag' ajratgan. 1910-yilda Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo'ja mehriy, Usmonxo'ja va Muhammaddin mahdum kabilar "Tarbiyayi atfol" (bolalar tarbiyasi) jamiyatini tashkil qilib, 1911-yilda 15 nafar, 1912-yilda esa 30 nafar talabani turkiyaga o'qishga yuborishgan. Jadidlar harakati o'z vaqtida ta'lim va madaniyat sohalarida ko'plab ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Ular yangi maktablar, madrasalar va ta'lim muassasalarini tashkil etish orqali zamonaviy bilimlar tarqatdilar. Jadidlar harakati O'rta Osiyoda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy holatga ta'sir etdi. Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosati, o'zbeklarning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yomonlashtirib yuborgan edi. Shu sababli, jadidlar harakati bu bosqinchilikka qarshi ma'rifat va ilmfan orqali kurashishga harakat qildi. Biroq, jadidlarning faqat ilmiy faoliyat bilan cheklanganligi, ularning to'liq siyosiy islohotlarni amalga oshira olmasligi

sababli, bu harakatni ba'zi mutaxassislar to'liq ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmagan deb baholashadi. Jadidlarning g'oyalari jamiyatda yangi fikrlarni shakllantirishga va tarixiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi, bu esa xalqlarning kelgusidagi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ularning siyosiy va ijtimoiy islohotlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, va mustaqil O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri sifatida davom etmoqda.

Turkiston muxtoriyati — XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan eng muhim siyosiy hodisalardan biridir. 1917-yilgi Oktabr inqilobidan so'ng, xalq o'z taqdirini o'zi belgilash niyatida tarix sahnasiga chiqdi. Bu harakat nafaqat siyosiy muxtoriyatga, balki keyinchalik mustaqil davlat qurish g'oyasiga xizmat qilgan ilk milliy uyg'onish harakatidir. 1917-yil 27-noyabr kuni Toshkentda o'tkazilgan Turkiston musulmonlarining favqulodda qurultoyida Turkiston muxtoriyati e'lon qilindi. Muxtoriyat demokratik prinsiplarga asoslangan edi. Hokimiyat musulmonlar va ruslardan iborat bo'lgan parlamentga (milliy majlisga) asoslanar edi. Rahbarlardan biri sifatida Mustafa Cho'qay, Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa mashhur jadid arboblari faoliyat olib bordilar. Muxtoriyat quyidagi maqsadlarni ko'zlagan edi: Xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlash, diniy va milliy erkinlikni kafolatlash, mahalliy iqtisodiyot va ta'limni rivojlantirish, Tinchlik va totuvlikni saqlagan holda mustaqil boshqaruv tizimi yaratish. Afsuski, Turkiston muxtoriyati uzoq yashamadi. Faqat ikki oy o'tib, 1918-yil fevral oyida bolsheviklar bu harakatni kuch bilan bostirdi. Sovet qo'shinlari Qo'qon shahriga bostirib kirib, muxtoriyat rahbarlarini ta'qib qildi, aholini qirib tashladi (ba'zi manbalarda 10 mingdan ortiq kishi halok bo'lgani aytiladi). Turkiston muxtoriyati Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ilk milliy-demokratik boshqaruv shakli sifatida katta ahamiyatga ega. Bu voqea: Mustaqillik g'oyalarining ilk shakllanishi, jadidchilik harakatining siyosiy poydevori, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman kabi turkiy xalqlarning mushtarak harakati sifatida yodda qolgan. Turkiston muxtoriyati — ozodlik sari tashlangan jasoratli qadamlardan biri bo'lib, mustaqil O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo respublikalarining tarixiy ildizlarini anglashda muhim o'rin tutadi. Har garchi bu harakat zo'ravonlik bilan bostirilgan bo'lsa-da, u xalq xotirasida erkinlik va adolat ramzi sifatida yashab kelmoqda.

Xulosa:

Jadidchilik harakati O'zbekiston tarixida ma'naviy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash va taraqqiyot sari dadil qadam bo'lib xizmat qilgan. Bu harakat xalqni jaholatdan ma'rifat sari yetaklab, mustamlaka zulmiga qarshi fikr va qalam bilan kurashgan ziyolilarni yetishtirdi. Ularning boshlab bergan yo'li — zamonaviy bilim, erkin fikr, milliy g'urur va ijtimoiy mas'uliyat asosidagi taraqqiyot bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida jadidlarning merosidan saboq olib, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy ongni rivojlantirish — har bir yosh avlodning muqaddas burchidir. Jadidchilik — bu tarixiy harakat emas, balki doimiy yangilanish va yuksalishga undovchi g'oya sifatida yashab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat.- T.:O'zbekiston, 1994 y.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq, 1998 y.
3. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovvuzi va hukmronligiga qarshi kurash.-T.: Sharq, 1998 y.
4. Ziyoyev H. Jadidlar harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini(XIX asr oxiri XX asrning boshlari) (Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.-T.:Universitet,1999.
5. Sodiqov H. Ubaydulla Asadullaxo'jayev (Inson va siyosat.-1991.-№11-B.69-76
6. Sodiqov H. Turkiston uch inqilob davrida (Fan va Turmush.-1990.-№ B.13-15;)
7. Sodiqov H. Shamsuddinov.R. Ravshanov P. Jadidlar va rus demokratlari (O'zbekiston ovozi.-1997. – 18 , 20, 23, 25, dek,)
8. Mahmudov. T. “Jadid harakati va uning ijtimoiy ta'siri”
9. Rahmonov. M. “Milliy o'zlik va jadidlar g'oyalari”
10. Karimov. I. O'rta osiyodagi jadidlar harakati
11. Usmonov B. Ta'lim va madaniyat; Jadidlar merosi
12. <https://oliymahad.uz/36485>
13. <https://yuz.uz/uz/news/jadidlar-millatning-yuragida-yashamoqda>